

“MA’QULLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashining 2024-yil 30-avgustdagи 18-sonli majlis bayoni bilan

“TASDIQLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Aksiyadorlarining 2024-yil 27-sentabrdagi 4-sonli umumiy yig‘ilishi bayoni bilan

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankingin Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizom

(yangi tahrirda)

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatları” va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamонави korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankingin “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ustaviga asosan ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Nizom O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o‘rinlarda - Bank) Kuzatuv kengashining maqomini belgilaydi va uning ishini, kengash a’zolarni saylash tartibini, shuningdek, Kuzatuv kengashi a’zolarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

2. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashi (keyingi o‘rinlarda - Kuzatuv kengashi) Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolati doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasnodir.

2-bob. Kuzatuv kengashining vakolatlari

3. Kuzatuv kengashi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Bank Boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

korporativ boshqaruv siyosatini (qoidalarini), bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan, tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to‘g‘risida xabardor etish, kapitalning yetarlilagini lozim darajada saqlab turish, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi siyosat (tartib)larni tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

yillik va navbatdan tashqari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarni chaqirish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilish kun tartibini tayyorlash;

Bank ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash to'g'risidagi takliflarni tasdiqlash uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritish;

Bank boshqaruvini tuzish, Bank boshqaruvi a'zolarini, shu jumladan Bank boshqaruvi raisini saylash (tayinlash), shuningdek ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, ularning vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, vazifalarini vaqtincha bajaruvchini tayinlash;

Bank nomidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolat bergen shaxs yoki Bank Kuzatuv kengashining raisi tomonidan Boshqaruv raisini yollash to'g'risidagi shartnomani tuzish;

Bankning korporativ obligatsiyalari, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish, shuningdek, boshqa qarz majburiyatlarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish;

Bankning ichki audit xizmati to'g'risidagi, ichki nazorat va komplayens xizmati to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash;

Bank Boshqaruvi faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash;

bankning filiallarini va vakolatxonalarini tashkil etish (tugatish) to'g'risida qarorlar qabul qilish;

bankning yillik moliyaviy hisobotlarni ko'rib chiqish va aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan o'n kundan kechiktirmay (oldin) dastlabki tarzda tasdiqlash;

aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi bo'yicha tavsiyalar berish;

Bankning sho'ba va qaram bo'lgan korxonalarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish;

har chorakda Bank Boshqaruvi raisining bank faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'ruzasi (hisoboti) hamda bank ichki audit xizmati, Ichki nazorat va komplayens xizmati, Risk (tavakkalchilik) bo'linmasi rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

ichki audit, ichki nazorat va komplayens, Risk (tavakkalchilik) bo'linmalarini tashkil etish va mazkur bo'linmalar rahbarlarini hamda xodimlarini tayinlash;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomani tuzish (sharnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq yirik bitimlar hamda affillangan shaxslar bilan tuzilishi kutilayotgan bitimlar to'g'risida qaror qabul qilish (vakolati doirasida);

Bankning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek, Bank Ustaviga Bankning ustav fondini ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalalarini hal qilish;

aksiyalarmi joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

Bankning tashkiliy tuzilmasini, boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorlarini va ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalarini

ma'qullah va aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish. Boshqaruv a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibini belgilash;

qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi (aksiya, obligatsiya) va emissiya risolasiga hamda uning matniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini ma'qullah va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdig'iga kiritish;

Bankda korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilotni va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;

Bankda korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish va aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishiga taqdim etish;

Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, shuningdek Bank Boshqaruvining Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini doimiy eshitib borish;

mol-mulkni bozor qiyomatini belgilashni tashkil etish;

Korporativ boshqaruv xizmati hamda uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash va korporativ maslahatchini tayinlash;

Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda, prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash;

Bank Boshqaruvi organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni bank Boshqaruvidan olish. Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

qaror qabul qilishda oxirgi hisobot davri bo'yicha Bank sof aktivlari miqdorining bir foizidan ortiq miqdorda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish (bunda ajratilayotgan xayriya miqdori o'tgan yilda olingan sof foydaning 10 foizidan oshmasligi hamda bu xaratjatlar Bank biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi);

Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini amaliyotga joriy etilishini nazorat qilish;

Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish masalalarini ko'rib chiqish;

Amaldagi qonunchilik va Bank Ustaviga muvofiq Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

4. Kuzatuv kengashi vakolati doirasidagi masalalar hal etish uchun Bank Boshqaruviga berilishi mumkin emas.

Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalarga Kuzatuv kengashiga bo'ysunuvchi bo'linmalarning xodimlarini va boshqa vakolati doirasidagi masalalarni hal etish uchun berishi mumkin.

Bankni transformatsiya qilish jarayonida korporativ boshqaruv bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan Kuzatuv kengashi vakolatlari matritsasi (ushbu Nizomga ilova) joriy etiladi. Bunda, Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritiladigan masalalar qoidaga ko'ra, mazkur matritsada belgilangan tartib (ketma-ketlik) asosida ko'rib chiqiladi.

3-bob. Kuzatuv kengashining majburiyatları

5. Quyidagilar Kuzatuv kengashining majburiyatlari hisoblanadi:

o‘z vakolatlarini Bank va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirish va Markaziy Bank bilan samarali hamkorlikni ta’minlash;

Bankning yetarli darajada kapitallashuvini ta’minlash;

Bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

Bankni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan biznes-rejalar ijrosini nazorat qilish;

ichki audit xizmati samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish;

Kuzatuv kengashi yillik moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tarzda e’lon qilishga o‘tish va ularni muntazamligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtiradi.

Kuzatuv kengashi a’zolari Bank faoliyatiga oid zarur axborotlarga ega bo‘lishlari uchun yetarli vaqt ajratilishi taqozo etiladi. Kuzatuv kengashi majlislarining kun tartibini tayyorlash, kengash majlislarining puxta tashkillashtirilishi va samarali o‘tkazilishi, shu jumladan kun tartibidagi masalalarning bayonnomalarda to‘g‘ri aks ettirilishi va rasmiylashtirilishi borasida ko‘maklashish uchun, Kuzatuv kengashi tomonidan kotib tayinlanishi mumkin. Kuzatuv kengashi kotibiga haq to‘lash va to‘lovlarning miqdorlari Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Kuzatuv kengashining ish faoliyatini tashkil etishda Korporativ boshqaruvi xizmati va Korporativ maslahatchi yordamlashadi.

4-bob. Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash, tayinlash va vakolatlarini muddatdan ilgari tugatish

6. Kuzatuv kengashi a’zolari aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga sayylanadi va cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.

Kuzatuv kengashiga ko‘rsatilayotgan nomzodlar aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi tomonidan belgilangan tartibda saylanadi, bunda nomzodlar qonunchilikda belgilangan tartibda dastlab bank aksiyadorlari bilan kelishib olinadi.

Bank Kuzatuv kengashining a’zoligiga ko‘rsatilayotgan nomzodlar o‘z lavozimga kirishishdan oldin O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan belgilangan tartibda kelishib olinadi.

Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash kumulyativ ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Bankning Kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo‘lgan mustaqil a’zolar va boshqa a’zolar soniga alohida ko‘paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashi mumkin.

Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida saylangan Kuzatuv kengashi a’zosi qaysi aksiyadorni vakili ekanligi yoki Kuzatuv kengashining qaysi a’zosi mustaqil a’zo ekanligi mazkur yig‘ilish bayonnomasida ko‘rsatib o‘tiladi.

7. Kuzatuv kengashi a’zolari soni kamida 7 (yetti) a’zodan iborat bo‘lishi hamda Kuzatuv kengashining ko‘pchiligi mustaqil a’zo bo‘lishi kerak. Bunda Kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlar, tanlov asosida ko‘rsatilishi mumkin va aksiyadorlar Umumiyligi yig‘ilishi tomonidan saylanadi.

Kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchiligi Bankka aloqador shaxslar bo‘lmasligi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashidagi a’zoligi mustasno.

Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari bilan shartnoma Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tuziladi. Kuzatuv kengashi raisligiga mustaqil a’zo tayinlangan taqdirda, u bilan

tegishli shartnomalar umumiy yig'ilishi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan tuziladi.

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari takroran qayta saylanganda ular bilan tuzilgan shartnomalar muddatining uzaytirilishi bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuziladi va Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan rasmiylashtiriladi. Bunda, Kuzatuv kengashi raisi mustaqil a'zo hisoblanganda, u bilan tuziladigan qo'shimcha kelishuvni aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan vakolat berilgan shaxs imzolaydi.

Tuziladigan shartnomalar shartlarida mustaqil a'zoning huquq va majburiyatlar, haq va kompensatsiyalar miqdori hamda ularni to'lab berish shartlari shuningdek, shartnomaning amal qilish muddatlari belgilanishi mumkin.

Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda amaldagi qonunchilik va Bank Ustavida belgilangan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Quyidagilar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'nggi uch yil ichida Bankda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

Bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

Bankning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnomalar mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nggi uch yil ichida Bankga va (yoki) uning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida Bankning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

Bank va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

Bankning boshqaruvi va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lмагan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomonidan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

Bankning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjalarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lмагan shaxs.

Bank Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu bandning yettinchi qismida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u Bankni va Kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu holda belgilangan tartibda boshqa nomzod mustaqil a'zo sifatida taklif etiladi.

8. Bank boshqaruvi a'zolari va Boshqaruvi raisi, Bankning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruvi organlarining a'zolari bank Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Kuzatuv kengashi a'zosining vakolatlari muddatdan avval tugatilishi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan aksiyadorlarning o'zgarishi, kengash a'zolarining o'z majburiyatlarini

lozim darajada bajarmasligi, Kuzatuv kengashi a'zosining tegishli arizasi berilganda yoki boshqa asoslarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

9. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylash uchun nomzodlarga qo'yiladigan talablar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

5-bob. Kuzatuv kengashi a'zosiga qo'yiladigan talablar

10. Kuzatuv kengashi a'zolari benuqson ishchanlik obro'siga ega bo'lishi, Bankning Risk (tavakkalchilik)larini samarali boshqarish, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

6-bob. Kuzatuv kengashining raisi

11. Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. Kuzatuv kengashi raisining o'rribosari Kuzatuv kengashi a'zolari orasidan Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tayinlanadi.

12. Kuzatuv kengashining raisi bo'limganda uning vazifalarini Kuzatuv kengashi raisi o'rribosari yoki Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri amalga oshiradi.

13. Kuzatuv kengashining raisi:

Kuzatuv kengashining ishini tashkil etadi;

kengash majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

majlislarda bayonnomaga yuritilishini tashkil etadi;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishini ochadi va umumiy yig'ilishda raislik qiladi;

Bank Ustavida va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa ishlarni amalga oshiradi.

7-bob. Kuzatuv kengashi majlislarini o'tkazish tartibi

14. Kuzatuv kengashi majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra yoki:

Bank aksiyadorlari;

Markaziy bank;

Kuzatuv kengashi a'zosi;

Bank Boshqaruvi;

Bank ichki audit xizmati rahbari;

Ichki nazorat va komplayens xizmati rahbari;

Risk (tavakkalchilik xizmati) rahbari;

Korporativ maslahatchi;

Bankning tashqi auditori talabi bo'yicha chaqirilishi mumkin.

15. Kuzatuv kengashi majlisi har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazilishi haqidagi xabar Kuzatuv kengashi a'zolariga majlis o'tkazish vaqt, joyi va kun tartibiga kiritilgan masalalar ko'rsatilgan holda faks, elektron pochta yoki xat bilan Korporativ maslahatchi yoki Kuzatuv kengashi kotibi, agar u bo'limganda Bank Boshqaruvi a'zolari orqali majlis o'tkaziladigan kundan kamida 3 (uch) ish kuni oldin yuboriladi.

16. Kuzatuv kengashining kun tartibidagi barcha masalalar, qoidaga ko'ra, oldindan Bank Boshqaruvida muhokama qilinadi. Kuzatuv kengashi a'zolariga, zarurat tug'ilganda, qo'shimcha

ma'lumotlar Korporativ maslahatchi, Kuzatuv kengashi kotibi yoki Bank Boshqaruvi a'zolari orqali yetkaziladi.

17. Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar ko'pchilik, ovozlarning kamida uchdan ikki qismi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalarni hal qilishda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bir ovozga ega bo'ladi. Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashi a'zolari belgilangan sonining kamida 75 (yetmish besh) foizini tashkil qilishi kerak.

18. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Bank Ustavi bilan nazarda tutilgan 75 (yetmish besh) foizdan kam bo'lib qolgan hollarda Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiylig'i qilingan shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning ana shunday navbatdan tashqari umumiylig'i qilingan shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning ana shunday navbatdan tashqari umumiylig'i qilingan shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning ana shunday navbatdan tashqari umumiylig'i qilingan shart.

19. Ovoz berish huquqi Kuzatuv kengashining bir a'zosi tomonidan Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bank ustav kapitalini aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va Bank Ustaviga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi, Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

20. Kuzatuv kengashi majlislarida bayonnomaliga yuritiladi, u kengash majlisi o'tkazilgandan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirilmay rasmiylashtirilib, tasdiqlanadi. Majlis bayoni o'zbek tili bilan birgalikda rus yoki ingliz tillarida ham tuzilishi mumkin va bunda o'zbek tilidagisi ustuvor hisoblanadi.

Majlis bayonnomalari bir nusxada tuziladi va bayonnomaning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ishonchliligi uchun mas'ul bo'lgan Kengash majlisida ishtiroy etayotgan a'zolar va Majlis kotibi tomonidan imzolanadi. Majlis bayonnomasining asl nusxasini majlis o'tkazilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida imzolash imkonini bo'lmagan, Kengash a'zolari majlis bayonnomasining imzolangan skanerlangan nusxasini, shu jumladan elektron raqamli imzodan foydalangan holda, Majlis kotibiga elektron pochta orqali yuborishi lozim.

Kengash (qo'mitalar) a'zolari muayyan vaqtida hujjatlarni chop etish, imzolash, skanerlash yoki raqamli imzo qo'yish imkoniyatiga ega bo'lmagan hollarda, agar ular ilova qilingan hujjat va kiritilayotgan takliflarga o'z roziligin elektron pochta orqali bildirsa, ushbu elektron xatlar asosida majlis bayonlari imzolangan deb qabul qilinadi hamda ular keyinchalik bayonnomaning imzolangan nusxasini taqdim etishlari lozim bo'ladi.

21. Majlis bayonnomasida:

majlis o'tkazilgan sana, joyi va vaqt;

majlisda qatnashgan shaxslar;

majlis kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar ko'rsatiladi.

22. Kuzatuv kengashi a'zolari majlis bayonnomasining to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladilar.

Agar ushbu band qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Bank oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

23 Kuzatuv kengashi majlis qarorlari sirtdan ovoz berish (so‘rov) yo‘li bilan o‘tkazilganda Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

24. Kuzatuv kengashi qarorlarni qabul qilish chog‘ida ovozlar teng bo‘lgan hollarda Kuzatuv kengashining raisi hal qiluvchi ovoz berish huquqiga egadir.

Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangandan so‘ng majlis kotibi va/yoki Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan Bank Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi.

Kuzatuv kengashi majlislari masofadan video-konferens-aloqa tartibida o‘tkazilishi mumkin.

8-bob. Kuzatuv kengashi a’zolarining huquq va majburiyatlari

25. Kuzatuv kengashi a’zosi:

Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashish, majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan so‘zga chiqish;

ishlarning shu kundagi ahvoli to‘g‘risida, Bank faoliyatining biror-bir davr ichidagi asosiy natijalari haqida, uni rivojlantirish rejalarini to‘g‘risida barcha to‘liq va ishonchli moliyaviy axborotlarni olish;

Kuzatuv kengashi a’zolari Kuzatuv kengashidagi faoliyati uchun qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda muayyan haq olish huquqiga ega;

Kuzatuv kengashi a’zolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash kengash raisi tomonidan kengashning har bir a’zosi uchun aniq amalga oshiriladi. Kengashning a’zolariga ular o‘z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to‘lanishi va vazifalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rnini qoplanishi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilanadi.

26. Kuzatuv kengashi a’zosi tomonlardan biri Bank bo‘lgan bitimdan moliyaviy manfaatdor bo‘lgan hollarda, shuningdek, Kuzatuv kengashi a’zosi bilan Bank manfaatlari o‘rtasida o‘zgacha nizo yuzaga kelgan hollarda, kengash a’zosi bitim tuziladigan paytga qadar o‘z manfatdorligini Kuzatuv kengashiga barvaqt ma’lum qilishi shart, bitim to‘g‘risidagi qaror esa shunday manfaatdorlikka ega bo‘limgan kengash a’zolarining ko‘pchiligi yoki aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida aksiyadorlar ko‘pchiligi tomonidan qabul qilinishi lozim. Bunda Kuzatuv kengashining manfaatdor a’zolari shunday bitim bo‘yicha muhokamada ham, qarorlar qabul qilishda ham ishtirok etmaydilar.

27. Kuzatuv kengashi a’zolari bevosita yoki bilvosita Kuzatuv kengashi tomonidan u yoki bu qarorlarni qabul qilishga ta’sir ko‘rsatganlik uchun haq olish huquqiga ega emaslar.

28. Kuzatuv kengashi a’zolari Bank imkoniyatlaridan (mulkiy va nomulkiy huquqlardan, xo‘jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlardan, Bankning faoliyati va rejalarini to‘g‘risidagi axborotdan) shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emaslar.

9-bob. Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish

29. Bank faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha majburiyatni amalga oshirish uchun Kuzatuv kengashi huzurida:

Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashi qo‘mitasi;

Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi;

Ekologik, ijtimoiy, korporativ boshqaruv (ESG), tayinlash va etika qo‘mitasi;

Xodimlar va mukofotlash qo‘mitasi;

Risklarni boshqarish qo‘mitasi va boshqa qo‘mitalar tuzilishi mumkin.

Mazkur qo‘mitalar tomonidan Bank faoliyatiga ta’sir etuvchi salbiy holatlar aniqlangan hollarda Kuzatuv kengashi majlisi chaqirilishi bo‘yicha Kuzatuv kengashiga murojaat qilinishi mumkin.

Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi kuzatuv kengashining bittadan ko‘p qo‘mitasida rais va ikkitadan ko‘p qo‘mitasida a’zo bo‘lishi mumkin emas.

30. Bank faoliyatini nazorat qilishda Kuzatuv kengashi quyidagi:

 - kredit siyosati;
 - kadrlar siyosati;
 - aktiv va passivlarni boshqarish yoki resurslarni boshqarish siyosati;
 - dividend siyosati;
 - investitsiya siyosati;
 - emissiya siyosati;
 - buxgalteriya hisob siyosati;
 - manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi siyosati;
 - risk-appetit bayonoti;
 - bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasi;
 - tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to‘g‘risida xabardor etish siyosati;

korporativ boshqaruv siyosat (qoida)larini va boshqa tegishli ichki hujjatlarni tasdiqlaydi hamda ularning amaliyotga joriy qilinishi, ularga rioya etilishi va o‘z vaqtida yangilanib borilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

10-bob. Kuzatuv kengashi a’zolarining javobgarligi

31. Kuzatuv kengashining a’zolari Bank va uning aksiyadorlari oldida o‘z majburiyatlarini tegishli tarzda bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda Bank Ustaviga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Agar ushbu band qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo‘lsa, ularning Bank oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo‘ladi.

32. Kuzatuv kengashi majlisida ovoz berishda qatnashmagan yoki Bankka ziyon yetishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergen Kuzatuv kengashi a’zolari javobgarlikdan ozod etiladilar.

11-bob. Yakuniy qoidalar

33. Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

34. Ushbu Nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va bekor qilingan kunga (yangi Nizom qabul qilingan kunga) qadar amal qiladi.

35. Agar ushbu Nizomning me’yorlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank Ustavidagi tartib hamda me’yorlariga zid bo‘lsa, unda Nizom amaldagi me’yorlariga moslangunga qadar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va Bank Ustavida belgilangan me’yorlari qo‘llaniladi.